

NURIDDIN SOBUNIY – BUXORONING YETUK MUTAKALLIM OLIMI

Turg‘unov Xurshid Ahlimirzayevich

Buxoro davlat universiteti Islomshunoslik yo‘nalishi
magistranti

НУРИДИН СОБУНИЙ — ВЫДАЮЩИЙСЯ БУХАРСКИЙ МУТАКАЛЛИМ

Тургунов Хуршид Ахлимирзаевич

Магистрант направления «Исламоведение» Бухарского
государственного университета

NURIDDIN SOBUNIY – A PROMINENT MUTAKALLIM OF BUKHARA

Turgunov Hurshid Ahlimirzayevich

Master’s student in the field of Islamic Studies at Bukhara
State University

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoroi sharifning buyuk mutakallim olimi Nuriddin Sobuniy Buxoriy hayoti, ilmiy merosi va islom ilmidagi o‘rnii tahlil etilgan. Maqolada uning aqida ilmi rivojiga qo‘sishgan hissasi, asarlari va ta’limotining islom falsafasi hamda kalom ilmi doirasidagi ta’siri yoritiladi. Shuningdek, olimning Buxoro ilmiy-madaniy muhitidagi roli va uning keyingi avlod mutafakkirlariga ta’siri haqida ham fikr yuritiladi. Ushbu tadqiqot Nuriddin Sobuniy Buxoriyning ilmiy merosini chuquorroq o‘rganish va uning fikrlari zamонавиyl islom tafakkuriga qanday ta’sir ko‘rsatganini anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Nuriddin Sobuniy Buxoriy, Bidoya, Kifoya, mutakallim olim, aqida ilmi, kalom, islom falsafasi, Buxoro ilmiy maktabi, ilmiy meros, islom tafakkuri.

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь, научное наследие и значение выдающегося бухарского мутакаллим-учёного Нуриддина Собуний Бухорий. В статье анализируется его вклад в развитие науки ‘акыда (исламского вероучения), его труды и влияние его учения в рамках исламской философии и калама. Также обсуждается роль учёного в научно-культурной среде Бухары и его влияние на мыслителей последующих поколений. Это исследование способствует более глубокому пониманию научного наследия Нуриддина Собуний Бухорий и того, как его идеи повлияли на современное исламское мышление.

Ключевые слова: Нуриддин Собуний Бухорий, Бидая, Кифая, мутакаллим, ‘акыда, калам, исламская философия, бухарская научная школа, научное наследие, исламская мысль.

Annotation: This article explores the life, scholarly legacy, and significance of the prominent mutakallim (Islamic theologian) from Bukhara, Nuriddin Sobuniy Bukhari. The paper analyzes his contributions to the development of Islamic creed (aqidah), his works, and the influence of his teachings within the realms of Islamic philosophy and kalam (theology). It also discusses his role within the intellectual and cultural environment of Bukhara and his impact on later generations of Muslim thinkers. This study aims to provide a deeper understanding of Nuriddin Sobuniy Bukhari’s intellectual heritage and how his ideas continue to influence contemporary Islamic thought.

Keywords: Nuriddin Sobuniy Bukhari, Bidayah, Kifayah, mutakallim scholar, aqidah studies, kalam, Islamic philosophy, Bukhara scholarly tradition, intellectual legacy, Islamic thought.



E-mail:

xurshid.turgunov@bk.ru

Orcid: 0009-0009-4505-
8277

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Buxoro azaldan islom olamining yirik ilmiy va ma'naviy markazlaridan biri sifatida tanilgan. Bu muborak zamin ko'plab buyuk allomalar, faqihlar va mutakallimlarni yetishtirgan. Shulardan biri Nuriddin Sobuniy Buxoriy bo'lib, u o'zining churqur ilmi va kalom ilmidagi xizmatlari bilan mashhur bo'lgan. Ushbu maqolada olimning hayoti, ilmiy merosi va islom falsafasiga qo'shgan hissasi yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Nuriddin Sobuniy Buxoriy XI-XII asrlarda yashagan bo'lib, u o'z davrining yetuk mutakallim va faqih olimlaridan biri edi. Olimning to'liq ismi Abu Muhammad Ahmad ibn Mahmud ibn Abu Bakr Sobuniy Buxoriy bo'lgan. Manbalarda olim bir necha taxalluslar bilan zikr qilingan[1]. Jumladan, «Nuruddin» (dinning porloq nuri), «Imom Sobunniy», «Bidoya sohibi», «Kifoya sohibi» kabilardir. Uning «Sobuniy» nisbati sovun ishlab chiqqanganligi yoki sovun sotish bilan shug'ullanganligidan kelib chiqqanligi aytildi [4]. «Bidoya sohibi» yoki «Kifoya sohibi» deb zikr qilinishi esa o'zi yozgan asarlaridan kelib chiqgan [1].

Ayrim manbalarda «Abu Muhammad» kunyasi keltirilgan bo'lsada, tarixchi olimlar «Abu Bakr» deb kunyalangan deyishadi. «Kashfi Zunnun» asari sohibi Hoji Xalifa olimni «Abu Mahomid» kunyasi borligini ham ta'kidlaydi. Chunki o'z ismi Ahmad, otasining ismi Mahmud, o'glining ismi esa Muhammad bo'lgan. Fiqhiy ilmlarni Shamsul Aimma Muhammad Kardariydan o'rgangan. Aqida ilmini esa o'sha davrdagi Abul Muin Nasafiyning shogirdlaridan ta'lif olgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Nuriddin Sobuniy o'z davrida ayrim ahli sunna vakillari va boshqa aqida maktabi namoyandalari va hatto bid'at ahllari bilan o'zaro ilmiy bahs-munozara qilgan. Mana shunday munozaralardan ikkitasining yozma matni bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri Shofeiy mazhabining yirik namayondasi, mantiq va falsafa yo'nalishida asarlar bitgan Ibn Xatib laqabi bilan mashhur bo'lgan Imom Faxruddin Roziy bilan bo'lib o'tgan [2]. Ushbu munozaralar «رؤة الله» (qiyomat kunida mo'min bandalar Alloh taoloni ko'rishi) «اللَّهُ أَكْبَرُ» (Alloh taoloning mavjudlik dalillari) «النَّكْوَنُ وَ الْمَكْوَنُ»

(yaratish va yaratilgan narsalar) kabi mavzularga aloqador bo'lgan. Mazkur munozaralarning birida Imom Sobuniy Imom Roziyga: “Ey kishi! Men Abu Muin an-Nasafiyning “Tabsirotul Adilla” kitobini o'qib chiqib, ushbu kitobga hech bir qo'shimcha tahqiq va tadqiqni keragi yo'qligiga qat'iy ishondim”, deb uning fikrlariga e'tiroz bildiradi.

Olimning ikkinchi munozarasi Shayx Rashididdin bilan bo'lib o'tgan, ushbu munozara yaratilmagan, yo'q narsa ko'rinasligi haqida ekanligini Mulla Ali Qori xabar beradi.

Nuriddin Sobuniyning Moturidiy ta'lomi asosida bir necha ilmiy asarlar tasnif etgan bo'lib, alloma ushbu asarlarida Moturidiy ta'lomitini yoyish, uning murakkab jihatlarini sharhlash, muxolif tomon qarashlari va e'tirozlariga ilmiy javoblarni sodda va tushunarli tarzda bayon qilib bergan. Olimning kalom ilmiga oid asarlari quyidagilardan iborat:

1. [Al-Muntaqo min ismatil anbiyo] – “Payg‘ambarlarning gunohdan saqlangani borasida saralangan ma'lumotlar”

2. [Al-Kifaya fil hidaya] – “Hidoyat borasida kifoya asar”

3. [Al-Bidaya fi usuli-d-din] – “Din asoslari borasida boshlang‘ich asar”.

Musannif “al-Munotaqo min ismatil anbiyo” kitobini yozganligi haqida “al-Kifaya fil hidaya” asarida ishora qilib o'tgan. Shundan aytish mumkinki, ushbu “al-Munotaqo” asari “al-Kifoya fil hidaya” asaridan avval yozilgan. Musannifning “Al-Munotaqo” asari Abul Husayn Muhammad ibn Yahyo Boshag‘ariyning “Kashful g‘ovamiz li ahvali-l-anbiyo” asaridan ta'sirlanib yozilgan [6]. Mazkur asarning 4 ta qo'l yozma nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ularning 3 tasi Turkiya davlatida, 1 tasi Qohira kutubxonalarida saqlanadi.

Imom Sobuniy keyingi “al-Kifaya fil hidaya” va “al-Bidaya fi usuliddin” ikki asarini Abul Muin an-Nasafiyning “Tabsirotul Adilla” kitobi asosida tayyorlagan. Olim tartib bo'yicha avval “al-Kifoya fil hidaya” asarini yozgan, so'ngra “al-Bidaya fi usuli-d-din” asarini yozadi. Bu haqida olim o'zining “al-Bidaya” asarining muqaddimasida xabar beradi [5]. “Men Allohnинг hamdi va yordami ila – “al-Kifaya fil hidaya” asarini yozib yakunlagan vaqtimda ayrim shogird va do'stlarim so'zları qisqa va yod olishlari oson bo'lishi uchun mazkur kitobdag'i asosiy

mavzularni yakuniy xulosasini yozib berishimni iltimos qildilar. Shu iltimosdan keyin “al-Bidaya” asarini yozishga qaror qildim” [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Olim umrining oxirgi vaqtlarida haj safariga chiqadi va shu safar asnosida Xuroson va Iroqda yuqorida aytib o’tilgan ikki olim: Imam Roziy va Shayx Rashididdin bilan munozara o’tkazadi. Chindan ham olimning yozib qoldirgan kitoblariga chuqur nazar solinsa, uning Imam Moturidiy va Imam Nasafiyarning fikrlariga tarjih berishlari, o’zi yondashgan masalalarda Moturidiy imomlariga muvofiq bo’lgani haqidagi ma’lumotlardan e’tiqod masalalarida Moturidiy va fiqhiy masalalarda Hanafiy mazhabida ekani xulosa qilinadi. Nuruddin Sobuniy 580-hijriy yili, safar oyining o’n oltinchisi, seshanba kuni shom namozi vaqtida vafot etadi. U kishining qabrlari Buxoro viloyatidagi Chor Bakr masjidi yonidagi yetti qozi qabristonida joylashgan [3].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Nuriddin Sobuniy Buxoriy islam ilm-fani tarixida chuqur iz qoldirgan ulug’ mutakallim va faqih olimlardan biridir. Uning hayoti va ilmiy merosi, xususan, Moturidiy aqidaviy maktabini yoyish va himoya qilish yo’lidagi xizmatlari alohida e’tiborga loyiqdir. U yozgan “al-Kifoya fil hidaya”, “al-Bidaya fi usuli-d-din” va “al-Muntaqa min ismatil anbiyo” asarlari kalom ilmining boy xazinasiga hissa bo’lib qo’shilgan. Olim o’z davrida yuzaga kelgan diniy-falsafiy qarashlarga qarshi ilmiy asosda bahs olib borgan, ayniqsa Imam Roziy va Shayx Rashididdin bilan bo’lgan munozaralari uning bilim doirasining kengligini ko’rsatadi. Uning aqida va fiqh masalalaridagi yondashuvlari Imam Moturidiy va Abul Muin an-Nasafiy ta’limotiga sodiq qolgan holda izchil tarzda davom ettirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida alloma merosini yanada chuqurroq o’rganish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari surildi:

Olimning asarlarini keng tadqiq qilish: Nuriddin Sobuniy qalamiga mansub asarlarning zamonaviy ilmiy tahqiq va tarjimalarini tayyorlash lozim. Bu orqali islomiy tafakkurning tarixiy bosqichlari chuqurroq o’rganiladi;

Ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish: Turkiya va Qohira kutubxonalarida saqlanayotgan qo’lyozma nusxalarni o’rganish maqsadida ilmiy delegatsiyalar yuborilishi zarur. Bu orqali yangi manbalar aniqlanadi va ilmiy almashinuvlar yo’lga qo’yiladi;

Madaniy meros sifatida e’tirof etish: Nuriddin Sobuniy asarlarini O’zbekiston va muslimmon olamida diniy-ma’naviy merosning yuksak namunasi sifatida targ’ib qilish orqali yosh avlodni ajdodlar ortidan ergashtirish mumkin;

Universitet va ilmiy markazlarda maxsus kurslar ochish: Islom falsafasi, kalom ilmi va Moturidiy ta’limoti asosida maxsus darslik va o’quv dasturlari ishlab chiqilib, Sobuniy merosi alohida kurs sifatida o’rgatilishi lozim;

Elektron va raqamli platformalarda targ’ib qilish: Olim asarlarini raqamlashtirib, onlayn kutubxonalar orqali ommaga taqdim etish kalom ilmi rivojiga katta hissa qo’shamdi;

Aqida va kalom ilmiga oid ilmiy forumlar tashkil etish: Islom aqidasi tarixidagi buyuk olimlarning fikr-mulohazalari bugungi davrda yangicha ilmiy yondashuvlar bilan tadqiq etilishi kerak. Bu borada xalqaro anjumanlar va konferensiyalar muhim ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abdulhay Laknaviy. Al-Favoidul bahiyya fi tarojimil hanafiyya. – Qohira: Dorl kutubil Islamiya. – B. 42.
2. Faxriddin ar Roziy. Munozarotu Faxriddin ar-Roziy fi biladi Mavarounnah. – Bayrut: Dorul Mashriq. – B. 14.
3. Ibn Qutlubg’o. Toju-t-tarojim. – Damashq: Dorul qalam. – B. 105.
4. Juzjoniy A.Sh. As-Sobuniy – Moturudiya maktabining yirik vakili. – Samarqand: Imam-Buxoriy saboqlari jurnali, 2000.
5. Nuruddin as Sobuniy. Al-Bidaya fi usuli-d-din. – Istanbul: Maktabatul Hanifa, 2018.B. 9.
6. Nuruddin as Sobuniy. Al-Kifoya fil hidaya. – Istanbul: Markazul Buhusul Islamiya, 2012. – 206 b.